

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025 noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 255 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUV VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatom Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
АКТУАЛЬНЫЕ ВОПРОСЫ ЦИФРОВИЗАЦИИ ФИНАНСОВЫХ РЫНКОВ	214
Шомуродов Равшан Турсункулович	
TEMIRBETON KO'RRIKLARDAGI BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	



QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoyeva Mehriqiyo Ilhom qizi	



BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI



Rahmonov Xurshid Xayriddinovich

Buxoro davlat texnika universiteti Iqtisodiyot
va menejment kafedrası dotsenti (PhD)
ORCID: 0000-0003-2461-2768



Atoeva Mehriqiy Ilhom qizi

Buxoro davlat texnika universiteti Iqtisodiyot
va menejment kafedrası o'qituvchi-stajyori
ORCID: 0009-0000-1252-650X

Annotatsiya. Maqolada charm va poyabzal mahsulotlari sanoat klasterini tashkil etish bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Unda klaster korxonalarini tashkil etishning afzalliklari, ahamiyati, mohiyati va funksiyalari keng yoritilgan. "Charm va poyabzal mahsulotlari" sanoat klasterining iqtisodiy samaradorligi hamda tashkiliy tuzilmasini ifodalovchi ko'rsatkichlar taklif etilgan. Shuningdek, maqolada charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarida raqobatning kuchayishi, tashqi muhit omillarining ta'siri hamda yangi iqtisodiy sharoitda tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish zarurati asoslab berilgan. O'zbekiston charm-poyabzal sanoatini rivojlantirishda davlat siyosatining o'rni, xususan, Prezident qarorlari orqali tarmoqni modernizatsiya qilish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, ishlab chiqarishni kengaytirish va eksport salohiyatini oshirish yo'nalishlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: raqobat, chorvachilik, charm, raqobatbardoshlik, qorako'l, eksport, poyabzal, jun.

Abstract. The article presents proposals for the establishment of an industrial cluster for leather and footwear production. It examines the advantages, significance, essence, and functions of organizing cluster enterprises. Indicators reflecting the economic efficiency and organizational structure of the "Leather and Footwear Products" industrial cluster are proposed. The article also substantiates the necessity of enhancing the competitiveness of industry enterprises under conditions of intensified competition in the leather, footwear, and fur sectors, as well as the influence of external environmental factors and the emergence of new economic challenges. Furthermore, the role of state policy in the development of Uzbekistan's leather and footwear industry is analyzed — particularly through presidential decrees aimed at modernizing the industry, deep processing of raw materials, expanding production, and increasing export potential.

Keywords: competition, livestock breeding, leather, competitiveness, karakul, export, footwear, wool.

Аннотация. В статье представлены предложения по созданию промышленного кластера кожевенно-обувной продукции. Рассмотрены преимущества, значение, сущность и функции организации предприятий кластера. Предложены показатели экономической эффективности и организационная структура промышленного кластера «Кожевенно-обувная продукция». В статье также обоснована необходимость повышения конкурентоспособности предприятий отрасли в условиях усиления конкуренции в кожевенно-обувной и меховой промышленности, влияния факторов внешней среды и появления новых экономических вызовов. Проанализирована роль государственной политики в развитии кожевенно-обувной промышленности Узбекистана, в частности направления модернизации отрасли, глубокой переработки сырья, расширения производства и повышения экспортного потенциала посредством указов Президента.

Ключевые слова: конкуренция, животноводство, кожа, конкурентоспособность, каракуль, экспорт, обувь, шерсть.

KIRISH

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida raqobatning kuchayishi, uni boshqarishning innovatsion shakllari va usullarining paydo bo'lishi, shuningdek, tashqi muhit ta'sirining ortib borishi natijasida tarmoqlarda yangi iqtisodiy muammolar yuzaga kelmoqda. Bunday sharoitda korxonalar faoliyatining samaradorligini oshirish, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirish va ichki hamda tashqi bozorlarda barqaror mavqega ega bo'lish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarida jadal islohotlarni amalga oshirish, teri mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash samaradorligini oshirish, shuningdek, raqobatbardoshlikni mustahkamlash orqali jahon bozorida o'z o'rnini topish uchun uzoq muddatli strategik tadbirlarni amalga oshirish zarur.

O'zbekiston Respublikasida charm-poyabzal sanoatini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-maydagi PQ-3693-son qarori¹ — "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasini rivojlantirish hamda eksport salohiyatini oshirishni yanada rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hujjat sohada yangi bosqichni boshlab berdi. Mazkur qarorga muvofiq, "O'zbekcharm-poyabzal" uyushmasi qayta tashkil etilib, uning o'rnida "O'zcharmsanoat" uyushmasi tashkil etildi.

Uyushmaning asosiy vazifalari sifatida quyidagi yo'nalishlar belgilab berilgan:

- chorva mollarini so'yish va teri tayyorlashdan tortib, xomashyoni chuqur qayta ishlash, charm-poyabzal, charm-attorlik, mo'yna, qorako'l va jundan tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishgacha bo'lgan jarayonlarning barcha bosqichlarida korxonalarga har tomonlama ko'maklashish;
- korxonalarda ilg'or texnologiyalarni joriy etish, xalqaro standartlar talablariga muvofiq sifat menejmenti tizimini tatbiq etishni rag'batlantirish hamda uyushma a'zosi bo'lgan tashkilotlarni modernizatsiya va texnik jihatdan qayta jihozlashda qo'llab-quvvatlash;
- ichki bozorda import o'rnini bosuvchi, yuqori sifatli va raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish;
- charm, mo'yna xom ashyosi va junni chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan korxonalar, chorvachilik xo'jaliklari, furnitura hamda butlovchi buyumlar ishlab chiqaruvchilar o'rtasida ichki va tarmoqlararo kooperatsiyani rivojlantirish;
- charm-poyabzal, mo'yna va qorako'l mahsulotlari hamda jundan tayyorlangan buyumlar segmentlarida marketing tadqiqotlarini tizimli ravishda olib borish, eksport salohiyatini kengaytirish va brendlashni rivojlantirish;
- ishlab chiqarishda ilg'or axborot texnologiyalarini, avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlarini hamda innovatsion modellashtirish usullarini keng joriy etish;
- malakali kadrlar tayyorlash, ilmiy salohiyatni oshirish va ishlab chiqarish-ta'lim-fan integratsiyasini mustahkamlash orqali ekologik toza xomashyo va materiallardan foydalanishga asoslangan barqaror ishlab chiqarishni tashkil etish.

Mazkur chora-tadbirlar charm-poyabzal tarmog'ining jadal rivojlanishini, xalqaro bozorlarda raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishni kengaytirishni hamda tarmoqning eksport salohiyatini izchil oshirishni ta'minlashga qaratilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

So'nggi yillarda charm-poyabzal sanoatida raqobatbardoshlikni oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish masalalari bo'yicha ko'plab tadqiqotlar olib borilgan. L.E. Morozova, O.A. Bortnik va I.S. Kravchuk (2009) korxonalar salohiyatini baholashda innovatsion yondashuvlarning ahamiyatini asoslagan. T.V. Sergievich (2021) biznes innovatsiyalari va klaster mexanizmlarining samaradorligini ta'kidlagan. FAO ekspertlari H. Steinfeld va J. Maki-Hokkonen esa "yashil iqtisodiyot" tamoyillarini charm ishlab chiqarishga tatbiq etish zarurligini ko'rsatgan. X.X. Rahmonov tarmoqda klasterlashuv raqobat ustunligini ta'minlashini asoslagan. Umuman olganda, mavjud adabiyotlar tarmoq raqobatbardoshligini oshirishda klasterlashuv, innovatsiyalar va ekologik texnologiyalar muhim omillar ekanini ko'rsatadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Buxoro viloyatida charm-poyabzal tarmog'ining raqobatbardoshligini oshirish masalalari tizimli ravishda o'rganilib, ilmiy asosda tahlil qilindi va baholandi. Tadqiqotning asosiy maqsadi — tarmoqni innovatsion yondashuvlar, klaster tizimini rivojlantirish hamda ilg'or boshqaruv mexanizmlarini joriy etish orqali uning samarali va barqaror rivojlanish yo'llarini aniqlashdan iborat.

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror, 03.05.2018 yildagi PQ-3693-son <https://lex.uz/docs/-3720454>



TAHLIL VA NATIJALAR

So'nggi yillarda raqobatning kuchayishi charm-poyabzal va mo'ynachilik tarmoqlarini boshqarish tizimining samaradorligini oshirish, xomashyoni chuqur qayta ishlash, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar turlarini diversifikatsiyalash hamda eksport hajmini kengaytirish orqali sohaning jadal rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishni talab etmoqda.

O'zbekistonda ushbu yo'nalishda bir qator muhim chora-tadbirlar amalga oshirilgan va izchil davom ettirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 26-fevraldagi "Charm-poyabzal va mo'ynachilik sohasida tayyor mahsulot ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori asosida teri xomashyosini chuqur qayta ishlash orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor charm-poyabzal mahsulotlarini ishlab chiqarish va eksport qilishni jadallashtirish maqsadida 2026-yilgacha charm-poyabzal va mo'ynachilik mahsulotlari eksportini 2,8 barobar oshirish belgilangan.

Shuningdek, 2023-yil 11-oktyabrdagi PQ-331-son qaror² bilan hududlarda xomashyoni to'liq yig'ib olish va qayta ishlashni yo'lga qo'yish, terini qayta ishlovchi korxonalar bilan kooperatsiya aloqalarini mustahkamlash, 2024–2026-yillarda esa xorijiy brendlar bilan hamkorlikni kengaytirish, "Xomashyodan tayyor mahsulotgacha" tamoyili asosida klaster loyihalarini amalga oshirish vazifalari belgilab berilgan.

Bugungi kunda ushbu hujjatlar ijrosi doirasida charm-poyabzal xomashyo resurslaridan samarali foydalanish, mahsulot sifatini oshirish, kichik sanoat zonalarini tashkil etish, tashqi bozorlarda marketing faoliyatini kuchaytirish va kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish bo'yicha amaliy ishlar faol olib borilmoqda.

O'zbekiston hozirda Markaziy Osiyoda terini chuqur qayta ishlash, charm va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarish bo'yicha yirik sanoat markaziga aylanib bormoqda. Klaster asosida loyihalarni amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan bo'lib, hozirda 10 dan ortiq korxona — "Peng Sheng Charm", "Orient Technology", "Premium Leather", "Angren Sharm Invest", "Hamkor Nur Savdo", "Nafis Charm", "Ravon Taraqqiyot Orzusi", "Buxoro Qorako'l Klaster" kabi subyektlar faoliyat yuritmoqda. Ushbu korxonalarda ishlab chiqarishning to'liq texnologik zanjiri shakllantirilmoqda.

Biroq hozircha "charm-poyabzal mahsulotlari" sanoatida xalqaro brendlar bilan to'liq integratsiyalashgan, ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlaydigan va MDH mamlakatlari xomashyosidan kompleks foydalanadigan klaster mavjud emas. Shu sababli, tarmoqda klaster loyihalarini amalga oshirishning asosiy maqsadi — ishlab chiqarish zanjiridagi ishtirokchilar o'rtasidagi sinergetik samarani kuchaytirishdir. Bu jarayon xomashyodan tayyor mahsulotgacha bo'lgan barcha bosqichlarda tannarxni pasaytirish va tarmoq korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi.

Xalqaro klasterlashtirish yondashuvi yuqori qo'shilgan qiymatli, eksportbop va raqobatbardosh tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatini yaratadi, logistika muammolarini kamaytiradi hamda ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmalaridan samarali foydalanish uchun qulay sharoitlarni ta'minlaydi.

Tadqiqot natijalariga ko'ra, charm-poyabzal sohasida xalqaro klaster yaratishda Mo'g'uliston tajribasidan foydalanish maqsadga muvofiqdir. 2024-yil 23–26-iyun kunlari Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiyn Xurelsuxning O'zbekistonga ilk davlat tashrifi davomida ikki mamlakat rahbarlari o'rtasida oliy darajadagi muzokaralar o'tkazilib, savdo-iqtisodiy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha 14 ta hujjat imzolandi. Ushbu tashrif natijasida tovarlar, kapital, inson resurslari va texnologiyalar harakatini erkinlashtiruvchi qulay iqtisodiy makon shakllandi. Bu esa ilgari murakkab deb hisoblangan ko'plab loyihalarni yanada qulay va amalga oshirish mumkin bo'lgan holatga keltirdi.

Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi va "Frontier Securities" ekspertlari Mo'g'ulistonni qisqa muddatda eng tez rivojlanayotgan davlatlardan biri sifatida e'tirof etmoqda. Jahon banki prognozlariga ko'ra, Mo'g'uliston iqtisodiyotining o'sish sur'ati kelgusi o'n yillikda yiliga o'rtacha 15 foizni tashkil etadi. So'nggi yillarda mamlakatda to'qimachilik, jun, mato, qo'y terisi va charm mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati jadal rivojlanmoqda. Mo'g'uliston 1997-yilda Jahon savdo tashkilotiga (JST) a'zo bo'lgan.

Bugungi kunda Mo'g'uliston charm-poyabzal sanoati millionlab katta va kichik shoxli chorva mollari terisini to'liq qayta ishlaydi. Teri eksport qilinishi bilan birga, mahalliy korxonalar poyabzal, po'stin va boshqa charm buyumlar ishlab chiqarishda faol foydalanmoqda. Ayni paytda xorijda talab yuqori bo'lgan mo'ynali dublyonkalar ishlab chiqarish ham yo'lga qo'yilgan.

Mamlakatda 35 ta yirik va 100 dan ortiq kichik charmnini qayta ishlovchi korxonalar faoliyat yuritmoqda. Eng yirik ishlab chiqaruvchilar ilg'or texnologiyalar va zamonaviy jihozlardan foydalanib, mahsulotlarining 20 foizini xalqaro standartlar asosida eksport qilmoqda. Mo'g'ulistonning "Mongolian Brands", "LeMon", "Montulga" va "Darxan Nexiy" kabi brendlari yuqori sifatli charm aksessuarlar, poyabzal, ofis buyumlari, san'at mahsulotlari va modaga oid charm mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha jahon miqyosida tan olingan. Ushbu brendlar tajribasidan xalqaro klaster yaratish jarayonida foydalanish O'zbekiston uchun samarali natijalar beradi.

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qaror, 03.05.2018 yildagi PQ-3693-son <https://lex.uz/docs/-3720454>

O'zbekistonning Markaziy Osiyoda charm-poyabzal mahsulotlari markaziga aylanishi uchun barcha imkoniyatlar mavjud: yetarli va sifatli xomashyo bazasi, arzon ishchi kuchi hamda qulay geografik joylashuv. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston, Afg'oniston va Tojikiston mamlakatlarida bir yilda 49,1 million dona yirik va mayda shoxli mol terisi xomashyosi shakllanadi. Ushbu mamlakatlarning poyabzal importi 220,5 million juftni tashkil etadi — bu esa katta sig'imdagi, o'zlashtirishga arziydigan bozor hisoblanadi.

Teri ishlab chiqarish jarayonida katta miqdordagi chiqindilar hosil bo'ladi. Ular ikki turga bo'linadi:

– ho'llash, tuzsizlantirish va oshlashgacha bo'lgan bosqichlarda hosil bo'ladigan qirqim, teri osti yog'i va jun kabi qattiq chiqindilar;

– oshlashdan keyingi yumshatish, yog'sizlantirish, quritish va silliqlash jarayonlarida hosil bo'ladigan qirindi, charm changi va boshqa chiqindilar.


Hozirda ishlab chiqarish chiqindilarini qayta ishlash tizimi yetarlicha yo'lga qo'yilmagan bo'lsa-da, olimlar tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, teri chiqindilaridan jelatin, kollagen, poliuretan va sun'iy charm kabi yangi mahsulotlar ishlab chiqarish mumkin. Shuningdek, ushbu chiqindilarni murakkab organik o'g'itlar sifatida qayta ishlash orqali tuproq unumdorligini oshirish, hosildorlikni yaxshilash va ekologik muvozanatni ta'minlash mumkin. Tarkibida xrom bo'lgan chiqindilarni qayta ishlashning istiqbolli yo'nalishlaridan biri — sun'iy "presslangan charm" ishlab chiqarishdir.

Bundan tashqari, kollagen tarkibli chiqindilardan qurilish plitalari tayyorlash texnologiyasi ham samarali hisoblanadi. Ushbu chiqindilarni mayda ezib, polietilen va polipropilen bilan aralashtirib, eritish va presslash orqali 6–7 mm qalinlikdagi, mustahkam qurilish plitalari ishlab chiqarish mumkin. Ularning ekologik tozaligi, issiqlik va shovqin izolyatsiyasi xususiyatlari yuqori bo'lib, qurilish sohasida keng qo'llanilishi mumkin.

• Shunday qilib, terini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va chiqindilardan samarali foydalanishga asoslangan xalqaro klasteri Buxoro viloyatida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Uning asosiy afzalliklari quyidagilardan iborat:

- mintaq va qo'shni davlatlarda barqaror xomashyo bazasining mavjudligi;
- arzon ishchi kuchi hamda klaster ishtirokchilari salohiyatidan sinergetik foydalanish orqali mahsulot tannarxining pasayishi;
- xalqaro standartlarga mos, sifatli va raqobatbardosh charm mahsulotlar ishlab chiqarish;
- texnologik zanjirda yangi qo'shimcha qiymat yaratilishi va eksport salohiyatining oshishi;
- xalqaro brendlar bilan hamkorlikni rivojlantirish va mahalliy brendlarni dunyo bozoriga olib chiqish imkoniyati;
- ishlab chiqarish chiqindilarini ekologik toza texnologiyalar asosida qayta ishlash va qo'shimcha mahsulot ishlab chiqarish uchun investitsiyalarni jalb etish imkoniyati.

1-jadval. Terini chuqur qayta ishlash, tayyor mahsulot ishlab chiqarish va chiqindilardan unumli foydalanish xalqaro klasteri loyihasi





XULOSA VA TAKLIFLAR

Taklif etilayotgan klaster loyihasi doirasida mahsulot realizatsiyasi bilan bog'liq vazifalarni samarali amalga oshirish maqsadida Markaziy Osiyo aholisini O'zbekiston korxonalarida ishlab chiqarilayotgan poyabzal, mo'yna, qorako'l, charm va jun mahsulotlari bilan vositachilarsiz hamda arzon narxlarda ta'minlashga ixtisoslashgan "Charm savdo markazi" korxonasini tashkil etish zarur. Ushbu markaz tarmoq mahsulotlarining ichki va tashqi bozorlardagi aylanmasini tezlashtiradi, ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtasidagi to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni mustahkamlaydi hamda eksport salohiyatini kengaytiradi.

Bundan tashqari, charm mahsulotlarining yirik iste'molchilari bo'lgan boshqa sanoat tarmoqlari bilan o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, davlat va korporativ xaridlar tizimida charm va mo'yna mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj hajmlarini aniqlash imkonini beruvchi tashkiliy tuzilma yaratish muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, hududlarda klaster tizimiga kiruvchi korxonalarning firma do'konlarini tashkil etish, ularning mahsulotlarini keng miqyosda targ'ib qilish va savdo infratuzilmasini rivojlantirish orqali tarmoqning raqobatbardoshligi yanada oshadi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi charm-poyabzal sanoatida ishlab chiqarish zanjirining to'liqligini ta'minlaydi, ichki bozorda import o'rnini bosuvchi mahsulotlar ulushini oshiradi hamda O'zbekistonning Markaziy Osiyo mintaqasidagi yetakchi ishlab chiqaruvchi va eksportyor sifatidagi mavqeini mustahkamlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Морозова, Л. Э., Бортник, О. А., Кравчук, И. С. Экспертные методы и технологии комплексной оценки экономического и инновационного потенциала предприятий. – Москва: МГУПС, 2009. – 81 с.
2. Сергиевич, Т. В. Белорусский национальный технический университет, Минск, Беларусь. Бизнес. Инновации. Экономика. – 2021. – Вып. 5. – С. 70–81.
3. Steinfeld, H. & Maki-Hokkonen, J. Livestock Production Systems: Programme, Policy & Planning. – FAO, Rome, Italy. Retrieved from: <http://www.fao.org/3/v8180t/v8180t0y.htm>.
4. Рахмонов, Х. Х. Конкурентоспособность как основа формирования стратегических параметров инновационно-технологического развития промышленных предприятий. // Актуальные проблемы развития национальной и региональной экономики. – С. 371–373.
5. Отрасли животноводства. Retrieved from: <https://geographyofrussia.com/otrasli-zhivotnovodstva/>.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100